

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIIY
DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

YUSUPOV SHAKIR XAITBAYEVICH

**AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZMDAGI
TARIXIY-MADANIY JARAYONLAR (XIV–XV ASRLAR)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch–2023

Falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Yusupov Shakir Xaitbayevich

Amir Temur va temuriylar davrida Xorazmdagi tarixiy-madaniy jarayonlar (XIV–XV asrlar).....5

Юсупов Шакир Хайтбаевич

Историко-культурные процессы в Хорезме в период Амира Темура и темуридов (XIV–XV века).....25

Yusupov Shakir Khaitbaevich

Historical and Cultural Processes in Khorezm during the Period of Amir Temur and timurids (14th–15th).....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....54

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIIY
DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

YUSUPOV SHAKIR XAITBAYEVICH

**AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZMDAGI
TARIXIY-MADANIY JARAYONLAR (XIV–XV ASRLAR)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch–2023

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PHD/Tar145 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://urdu.uz>) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayev Utkir Ismailovich,
tarix fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Koshanov Baxitbay Abdikerimovich,
tarix fanlari doktori, professor

Yaxshiyev Anvar Jo'raqulovich,
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.30.06.2021.Tar.55.05 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "25" 08 soat 10 daqiqa dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (862) 224-66-16.).

692 Dissertatsiya bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (862) 224-66-16; e-mail: info@urdu.uz.).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "14" 08 kuni tarqatildi.
(2023-yil "14" 08 daqiqa 5 raqamli reestr bayonnomasi.)



S.R.Davletov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
msk, t.f.d., professor,

Y.A.Karimov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, PhD), dotsent,

M.T.Jumaniyazova,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi v.v.b.,
t.f.n., dotsent.

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Hozirgi kunda O‘zbekiston tarixini zamonaviy talab darajasida o‘rganish, tarixiy-madaniy jarayonlar, o‘tmish voqealarini yangi ilmiy yondashuvlar va qarashlar asosidailm-fanda e’tirof etilgan tamoyillar orqali tavsiflash, asl manbalarga tayangan holda tahlil etish muhim vazifa hisoblanadi. Shu ma’noda, jahonni globallashtirish jarayonlari jadal qamrab olgan bir davrda, bu jarayon pandemiya sharoitida vaqtincha sekinlashgan bo‘lsa-da, ayni paytda yana avj olishi, turli mintaqa va xalqlarga xos madaniy merosni saqlash, kelajak avlodga yetkazish hamda ularni ilmiy asosda o‘rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev yangi jamiyat qurilishi jarayonida xalqimizning tarixida boy madaniyat va bunyodkorlik an’analarini o‘rganish va ulardan foydalanish katta ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidlab o‘tgan edi¹.

XIV asr 70-yillaridan to XV asr oxirigacha bo‘lgan davrdagi Xorazm vohasining ijtimoiy-iqtisodiy holati sobiq sovet tarixshunosligida ham, tabiiyki, o‘zining haqqoniy aksini topgan emas. Ya’ni, sovet tuzumi davri adabiyotlarida uqtirilgan Amir Temur hujumlari natijasida “Xorazm madaniyati yer bilan yakson qilindi” yoki “Temuriylar davridagi tinimsiz urushlar Xorazmda siyosiy va iqtisodiy tizimning inqiroziga hamda madaniy hayotning butunlay izdan chiqishiga olib keldi”, deganga o‘xshash fikrlar tarixiy haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi.

So‘nggi arxeologik tadqiqotlar natijalari va shu davr manbalarining yangicha talqini Xorazmda yangi shaharlarning shakllanishi hamda ilgarigi shaharlarning me’moriy jihatdan ta’mirlanish ishlari XIV–XV asrlarda faollashganligidan dalolat berib, qo‘lga kiritilgan faktlar buni tasdiqlaydi. Shundan kelib chiqqan holda, XIV–XV asrlarda yuz bergan bu yuksalish jarayonlarini hamda u bilan bog‘liq ravishda Xorazm madaniyati tarixini atroflicha o‘rganish rivojlangan O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolaridan biri sifatida tadqiqot obyekti qilib olinishiga asos bo‘ldi.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi 222-sonli “2010–2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”² gi, 2014-yil 21-iyuldagi 200-sonli “Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”³ gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvardagi F-5181-sonli “Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2010 йил 7 октябрдаги 222-сонли “2010–2020 йилларда номоддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш, асраш, тарғиб қилиш ва улардан фойдаланиш Давлат дастурини тасдиқлаш тўғрисида”ги Қарори. /www.lex.uz

³ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 21 июлдаги “Моддий маданий ва археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни янада такомиллаштириш юзасидан қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 200-сонли Фармойиши. / www.lex.uz

va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida"⁴ gi Farmoyishi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni⁵, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni⁶ hamda shu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning "Demokratik va huquqiy jamiyat, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy rivojlanish, innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi" dasturi ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mavzuga oid tadqiqotlar yetarli darajada yoritilgani holda, aksariyati bir tomonlama, atroflicha chuqur va xolis tadqiq qilinmasdan, shuningdek, mafkuraviy jihatdan cheklangan yoki hukmron yakka mafkura talablaridan kelib chiqqan holda yoritilgan. Shulardan kelib chiqib, mavzuni yoritish jarayonida uni o'rganilganlik darajasini quyidagicha guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Xorazmning Amir Temur va temuriylar davri tarixiga oid XIX asr ikkinchi yarmidan – XX asr boshigacha bo'lgan davrdagi manbalar va tadqiqotlar.

2. XX asrning 90-yillarigacha bo'lgan davrga oid sobiq sovet va xorijiy tadqiqotchilar asarlari ma'lumotlari.

3. XX asrning 90-yillaridan to hozirgi kungacha bo'lgan davrda olib borilgan arxeologik izlanishlar va tadqiqotlar natijalari.

Mavzuning manbashunosligi va tarixshunosligi masalalari dissertatsiyaning I bobida batafsil yoritilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Urganch davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi asosida amalga oshirilgan hamda Xorazm Ma'mun akademiyasi tasarrufida 2012–2016-yillar mobaynida bajarilgan F1-FA-0-16549 shifrlı "Xorazm tarixi (I jild eng qadimgi davrlardan V asrgacha. II jild. V asrdan XVI asrgacha)" mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2018-yil 5-dekabrda № 22531-xx Bayon topshiriqlarining ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan Ilmiy guruh

⁴ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 16 январдаги Ф-5181–сонли "Моддий маданий ва археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни такомиллаштириш тўғрисида" фармойиши. / www.lex.uz

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони / <https://lex.uz/acts/3107036>

⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли "2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони / <https://lex.uz/docs/5841063>

tarkibida Xorazm tarixi monografiyasining “O‘rta asrlarda Xorazm” bo‘limini tayyorlashda foydalanilgan.

Tadqiqotning maqsadi Amir Temur va temuriylar davrida Xorazmning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini ilmiy jihatdan tadqiq qilish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari: Dissertatsiyada quyidagi ilmiy vazifalarni hal etish rejalashtirilgan:

XIV–XV asrlar Xorazm tarixi va madaniyatiga doir yozma manbalar ma’lumotlarini umumlashtirish, ularni yangicha asosda ilmiy jihatdan tahlil qilish, xolislik nuqtai nazaridan qiyosiy o‘rganish;

arxeologik yodgorliklar, shaharlar tarixini o‘rganish jarayonida erishilgan yutuqlarga tayangan holda Xorazmning XIV–XV asrlar moddiy madaniyati va ma’naviy hayotini tahlil qilish;

yo‘zma manbalar ma’lumotlarini yangi arxeologik tadqiqotlar materiallari bilan qiyosiy taqqoslash asosida Xorazmning XIV–XV asrlar siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tahlil qilib, uning hudud hamda mintaqa madaniy va ma’naviy hayoti rivojiga ta’sirini yoritish;

XIV–XV asrlar Xorazm tarixi va madaniyatini chuqur o‘rganish, uni qo‘shni o‘lkalar tarixi va madaniyati bilan qiyosiy taqqoslash, Sharq xalqlari madaniy taraqqiyotidagi o‘rni masalasini ochib berish;

Xorazmda XIV–XV asrlarda iqtisodiy va madaniy sohalarda qo‘lga kiritilgan yutuqlarni, ma’naviy hayotda shakllangan an’analarni va tarixiy tajribalarni ilmiy jihatdan tahlil qilish;

yangicha qarashlar va yondashuvlar asosida XIV–XV asrlar Xorazm madaniyatining asosiy bosqichlarini aniq faktlarga tayangan holda ochib berish, qo‘lga kiritilgan ma’lumotlarni yangicha tahlil asosida o‘rganish;

Amir Temur va temuriylar davrida Xorazmda kechgan siyosiy va iqtisodiy munosabatlar hamda jarayonlarni tahlil qilish, shu asosda Xorazmda shaharsozlik va madaniy hayot taraqqiyoti omillarini o‘rganish, ilmiy xulosalar chiqarish;

turli tarixiy yo‘nalishlardagi (manbashunoslik, arxeologiya, etnografiya, numizmatika, toponomika, san’atshunoslik) tadqiqotlar asosida hali ilmiy muomalaga to‘liq kiritilmagan faktik materiallarni ilmiy tahlilga tortib, ularni xolislik nuqtai nazaridan tadqiq qilish.

Tadqiqotning obyekti. Xorazm vohasining XIV–XV asrlardagi tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi yozma manbalar ma’lumotlari, mavzuga oid arxeologik tadqiqotlar natijalari hamda ilmiy-tarixiy adabiyotlardagi ma’lumotlarni qiyosiy o‘rganish asosida ilmiy jihatdan tahlil qilib, umumlashtirish va vohaning shulardan kelib chiqib yaratiladigan shu davrga oid yaxlit tarixiy-madaniy manzarasi tadqiqot obyekti sifatida tanlandi.

Tadqiqot predmeti. Amir Temur va temuriylar davri madaniyati tarixiga oid muammolarni tizimli o‘rganish yo‘li bilan o‘sha davrda Xorazmdagi madaniy jarayonlarga ilmiy baho berish tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma’lumotlarni umumlashtirish, xronologik ketma-ketlik, voqea-hodisalarga baho

berish, manbalar ma'lumotlariga tanqidiy yondashuv, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Xorazmning Amir Temur va temuriylar davridagi madaniy rivojlanish jarayoni mustaqillikkacha bo'lgan ilmiy adabiyotlarda, ayniqsa, sobiq sovet tarix-shunosligida o'zining haqqoniy aksini topmaganligi, Amir Temurning Xorazmga hujumlari natijasida voha madaniyati yer bilan yakson qilinganligiga doir fikrlar haqiqatga to'g'ri kelmasligi va chiqarilgan xulosalarning xolis emasligi isbotlab berilgan;

Xorazmning XIV–XV asrlardagi siyosiy va iqtisodiy holati, shaharlar madaniyati va ularning moddiy madaniyat komplekslari, shu davr ma'naviy hayoti Xorazmning shu davrlarda Amir Temurning ulkan saltanati tarkibiga kirganligi hamda Amir Temur va temuriylar davrida amalga oshirilgan bir qator tadbirlar yagona saltanatning boshqa hududlari qatori Xorazmning ham madaniy rivojlanishi yo'lidagi omillardan bo'lganligi aniqlangan;

Temur va temuriylarning boshqa davlatlar bilan olib borgan elchilik munosabatlari, yozishmalarida mamlakatlar o'rtasida savdo-sotiqni rivojlantirish masalasi alohida ta'kidlangani zamirida ham obodonchilik, ayniqsa, shaharlarni yuksaltirish istiqbolli rejasi mavjudligi va shu davrda qadimgi Buyuk Ipak yo'li yo'nalishlari bo'ylab savdo aloqalarining tiklanishi orqali Xorazm ham ushbu tizim doirasida amal qilganligi hamda shu tariqa bu davrlarda saltanatning boshqa hudud va shaharlari qatori Xorazmning ham xalqaro mavqei yuksalganligi isbotlangan;

XIV–XV asrlarda ilm-fan yuksak darajada (ilohiyot, fiqh, tibbiyot, falsafa, tarix, adabiyot, xattotlik va musiqa) keng rivojlanganligi yozma manbalar hamda arxeologik tadqiqotlar natijalari Xorazmning ijtimoiy-madaniy va etnik munosabatlar markazlari Gurganj, Qiyot, Zamaxshar va Jampiqqal'ada topilgan moddiy ashyolar asosida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. XIV–XV asrlar Xorazm tarixiga oid manbalar ma'lumotlari tanqidiy va kompleks yondashuvlar asosida yangidan o'rganilgan.

Amir Temur va temuriylar davri tarixi va madaniyatiga oid ilmiy adabiyotlarning Xorazm vohasiga xos jihatlari, shuningdek, birlamchi manbalardagi umumiy ma'lumotlarning ishonchlilik sifatleri o'rganilgan.

O'rganilayotgan davrning yodgorliklar topografiyasi, ularning boy madaniy qatlamlaridan olingan ma'lumotlar hamda Xorazm arxeologik yodgorliklarida aniqlangan ma'lumotlar tarixiy manbalar bilan qiyoslanib, jami ma'lumotlar umumlashtirish asosida tadqiq etilgan.

Tadqiqot natijalari va ilgari surilgan ilmiy xulosalardan tarix va maxsus tarix fanlari mutaxassislari, oliy va professional ta'lim muassasalari talabalariga ma'ruzalar o'qish va amaliy mashg'ulotlar olib borish jarayonida, yangi tadqiqotlar yaratishda, o'quv adabiyotlarining o'rganilgan davr Xorazm tarixi va madaniyatiga doir bo'limlarini yangi ma'lumotlar bilan to'ldirish va boyitishda keng foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, chiqarilgan xulosalarning tarixiylik, tavsiflash, shuningdek, qiyosiy-tipologik tahlil kabi usullar bilan asoslangani, vohada hayotning barcha sohalarining rivojlanishi turli hujjatlar, ishonchli moddiy va ma'naviy manbalarga tayanib ochib berilganligi bilan, shuningdek, tadqiqotda tarix fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo'llanilgani, tarixiy manba va adabiyotlardan foydalanilganligi hamda ularga tanqidiy tahlil va qiyosiy yondashilganligi asosida chiqarilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati vohadagi Amir Temur va temuriylar davriga oid kam yoritilgan ma'lumotlarni boyitishga xizmat qilishi, Xorazm vohasining shu davrga oid ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlari, madaniyati to'g'risida ilmiy-nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirishi, ushbu masalaga doir ilmiy xulosalarni boyitishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, undan bugungi kunda Amir Temur va temuriylar davri tarixi bo'yicha yanada chuqurroq ilmiy izlanishlar olib borishda, "O'zbekiston tarixi", "Xorazm tarixi"ni o'rganilgan davrga taalluqli ma'lumotlar bilan to'ldirishda, respublika oliy o'quv yurtlari talabalari, akademik litsey o'quvchilari uchun turli o'quv qo'llanmalari va darslik, monografiyalar yaratishda foydalanish orqali yangi materiallar bilan to'ldirishga ko'maklashadi. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan tarixiy-madaniy merosni targ'ib qilishda, O'zbekiston tarixini o'rganishda, darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Amir Temur va temuriylar davrida Xorazmdagi tarixiy-madaniy jarayonlar (XIV–XV asrlar) masalasini tadqiq etish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va xulosalar asosida:

Xorazmning XIV–XV asrlardagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti Amir Temurning ulkan saltanati tarkibiga kirganligi hamda Amir Temur va temuriylar davrida amalga oshirilgan bir qator tadbirlar yagona saltanatning boshqa hududlari qatori vohaning ham madaniy rivojlanishi bilan bog'liq xulosalardan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida 2020–2022-yillarda bajarilgan "Markaziy Osiyo mutafakkirlari asarlari asosida buzg'unchi g'oyalarga qarshi ma'rifiy, tarbiyaviy kurash asoslarini o'zida jamlagan multimedia dasturi hamda mobil ilovasini yaratish" nomli FZ–202002146 amaliy loyihada foydalanilgan (O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tomonidan berilgan 2023-yil 28-martdagi 02–292-son dalolatnomasi). Tadqiqot natijalaridan foydalanish innovatsion loyihaning ilmiy ahamiyatini oshirib, ayrim nazariy masalalarning yechimi sifatida xizmat qilgan;

yozma manbalarning yangicha tahlili hamda ularni yangi arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlari asosida Xorazmning Amir Temur va temuriylar davridagi madaniy rivojlanish jarayoni mustaqillikkacha bo'lgan ilmiy adabiyotlarda, ayniqsa, sobiq sovet tarixshunosligida o'zining haqqoniy aksini topmaganligi, Amir Temur hujumlari natijasida Xorazm madaniyati yer bilan yakson qilinganligiga doir fikrlar haqiqatga to'g'ri kelmasligi va chiqarilgan xulosalarning

xolis emasligi kabi ma'lumotlardan Qurolli Kuchlar Davlat muzeyidagi ekspozitsiyalarning bo'limlarini shakllantirishda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida 2021–2022-yillarda bajarilgan “O'zbek harbiy san'ati tarixi” mavzusidagi fundamental loyihani tayyorlashda (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2023-yil 29-martda berilgan 10/559-son dalolatnomasi) hamda muzey ekspozitsiyasini boyitishda, to'plam, dastur va qo'llanmalar tayyorlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur dissertatsiya natijalari 11 ilmiy anjuman va seminarlarda, shu jumladan, 3 ta xalqaro, 8 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida aprotatsiyadan o'tgan.

Dissertatsiya natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 17 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, 11 ta maqola Respublika jurnal va to'plamlarida va 2 ta maqola xorijiy jurnal va to'plamlarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 124 bet, unga 25 ta illyustrativ materiallar ilova qilingan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyada birinchi bob “**Xorazmda XIV–XV asrlar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar manbashunosligi va tarixshunosligi**” deb nomlandi. Bobning birinchi bo'limi “*Xorazmning XIV–XV asrlar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti haqidagi yozma manbalar ma'lumotlari tahlili*” deb nomlanib, bu yerda XIV asr oxiri va XV asrlarda Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq davlatlari hamda Yevropada Amir Temur va temuriylar davriga oid asarlarbugungi o'quvchi va tadqiqotchilar uchun birlamchi manba vazifasini o'tashi ochib berilgan.

Amir Temur davriga oid ilk manbalardan biri saroy tarixchisi Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” yoki “Temur Zafarnomasi” asari hisoblanadi. Bu asardan ayrim parchalar rus (V.G.Tizengauzen) va chex tillariga (F.Gauer, 1937-y.) tarjima qilingan⁷. Ushbu asarda voqealar bayoni 1404-yil oxirigacha bo'lgan davrni qamrab olgan. Muallif asarni tuzishda Temur tarixiga oid manbalar, harbiy yurishlar vaqtida tuzilgan kundaliklar, hattoki og'zaki ma'lumotlardan ham foydalangan⁸. Nizomiddin Shomiyning mazkur asarida ham Xorazm to'g'risida

⁷ Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.1. – М. –Л: Наука, 1939. –С.511-522 (далее МИТТ); Стори Ч.А. Персидская литература. Био-библиографический обзор в трех частях / Перевёл с английского, переработал и дополнил Ю.Э.Брегель. Часть II.–М., 1972.–С.790-791; Темур ва Улуғбек даври тарихи. – Б. 14.

⁸ Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома.–Тошкент: Шарқ,1997; уанаqarang: МИТТ. Том I. –С. 511-523; Извлечения из Гийасад-дина Али, Шараф ад-дина Йазди, Низам ад-дина Шами. Зафар наме (извлечения) // СМЗО. Том 2. –Л., 1941. Саидкулов Т.С. Ўрта Осиё халқлари тарихи тарихшунослик лавҳалари. 1-қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. –Б.68.

ma'lumotlar mavjud. Jumladan, Amir Temurning Gurganjni qaytadan tiklash to'g'risidagi buyrug'i haqidagi ma'lumotlar shular jumlasidandir⁹.

Amir Temur haqidagi ma'lumotlarni o'rganish va uning zamondoshlariga baho berishda tarixchi va sharqshunos olimlar foydalanadigan yirik manbalardan yana biri Ibn Arabshohning (1392–1450) “Ajoyib al maqdur fi tarixi Taymur” (“Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”) asari hisoblanadi. Bu asar bir necha tillarga (fransuz, lotin, ingliz va turk) tarjima qilingan. Respublikamiz kitobxonlari esa ko'proq taniqli sharqshunos, arabshunos U.Uvatov tomonidan o'zbek tiliga tarjimasidan keng foydalanishmoqda¹⁰.

Amir Temurning Xorazmga harbiy yurishlari tarixini ancha batafsil yoritgan, zamon nuqtai nazaridan voqealar jarayoni kechgan davrlarga nisbatan yaqin, tirik guvohlar bilan ko'rishgan mualliflardan biri Sharafuddin Ali Yazdiy (vafoti 1454-y.) hisoblanadi. Uning hijriy 828-yili (milodiy 1424–1425) yakunlangan “Zafarnoma” asarining alohida bo'limlarida Sohibqironning Xorazmga yurishlari haqida ma'lumotlar mavjud bo'lib, ular tarixiy solnomachilik nuqtai nazaridan tahlil qilingan¹¹. “Zafarnoma”da Amir Temurning Xorazmga yurishlarining asl mohiyati va sabablari ochib beriladi.

Amir Temur va Temuriylar davriga oid manbalar qatorida Abdurazzoq Samarqandiyning (1413–1482) fors-tojik tilida yozilgan “Matlai us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn” (“Ikki baxtli yulduzning balqishi va ikki dengizning qo'shilishi”) asarida ham Amir Temurning Xorazmdagi siyosatiga aloqador ma'lumotlarni uchratamiz. Asar katta davrni–1304-yildan 1470-yillargacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Muallifning “Matlai us-sa'dayn” asari fors-tojik tilidan o'zbekchaga tarjima qilingan¹². “Matlai-us-sa'dayn” asari orqali biz faqat Xorazmda Amir Temur davrida kechgan voqealardan emas, balki temuriylar davridagi siyosiy holatdan ham voqif bo'lamiz.

Bu davrdagi Xorazmga taalluqli bo'lgan voqealarga doir ma'lumot va qarashlarni Mirxondning nevarasi G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir al-Husayniyning (1474–1535) jahon tarixiga bag'ishlangan “Habib us-siyar” asari boyitadi¹³.

Umuman olganda, yuqorida ko'rsatilgan Amir Temur va temuriylar davri Xorazmning ijtimoiy-siyosiy tarixi va madaniy hayotidagi ijobiy holatlar arab-fors, Yevropa va Rossiya yozma manbalarida o'z aksini topgan. Ushbu ma'lumotlarni arxeologik tadqiqotlar bilan qiyosiy o'rganish jarayoni XIV asr oxiri va XV asrlardagi Xorazm hududida madaniy hayotni o'rganishga yordam beradi, deb xulosa chiqarish mumkin¹⁴.

⁹ МИТТ. Т.1. –С.534.

¹⁰ Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-Мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). 1 китоб / Сўзбоши, араб тилидан таржима ва изоҳларни филология фанлари номзоди Убайдулла Уватов тайёрлаган. Масъул муҳаррир: А.Ўринбоев. –Тошкент: Фан, 1991.–326 б. 2-китоб.– Б. 192.

¹¹ Шарафуддин Али Ўзидий. Зафарнома.– Б. 72-76, 79-80, 86, 119.

¹² Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи ус-саъдайн ва мажмаъ ул-бахрайн. –Тошкент, 1969. 464 б.

¹³ МИТТ. Т.2. – С.539-540.

¹⁴ Юсупов Ш.Амир Темур ва темурийлар даври Оролбўйи маданиятининг тарихий манбаларда акс этиши // Антик давр цивилизацияси тараққиётида Хоразмнинг ўрни / Республика илмий анжумани материаллари. 2011 йил 20 май. – Урганч-Хазорасп-Хива, 2011.–С.109-112.

Birinchi bobning navbatdagi bo‘limi “*Xorazmda Amir Temur va temuriylar davrida kechgan madaniy jarayonlarning tarixiy tadqiqotlarda aks etishi*” deb nomlanib, Xorazmda Amir Temur va temuriylar davrida kechgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixini o‘rganishdan oldin shu narsani alohida ta’kidlash lozimki, bu buyuk shaxs tarixini yuqorida qayd qilingan olimlar turli siyosiy qarashlar asosida o‘rganishgan hamda xulosa chiqarganliklari masalalariga e’tibor berildi.

Aslida, Amir Temur va temuriylar davrini xolisona baholash XX asrning 70-yillarida akademik I.M.Mo‘minov qalamiga mansub maxsus risoladan boshlangan edi ¹⁵. Mustaqillikka erishilgandan keyin Amir Temur va temuriylar davri Movarounnahr va Xorazm vohasi tarixiga oid yangi fikrlar akademik A.A.Asqarov ¹⁶ va boshqa olimlarning ma’ruza, ilmiy maqolalarida chop etildi ¹⁷.

Bu davr bo‘yicha bir qancha asarlar muallifi professor A.Y.Yakubovskiy (1886–1953) va uning Oltin O‘rda hamda temuriylar davriga oid ilmiy ishlarini alohida qayd etib o‘tish maqsadga muvofiq. Uning Amir Temur va temuriylar davridagi O‘zbekiston tarixiga oid fikr va mulohazalaridan ko‘p jildli “O‘zbekiston tarixi” kitoblarini nashrga tayyorlashda bir necha marta ayrim qo‘shimchalar yoxud juz’iy o‘zgartirishlar bilan foydalanilgan ¹⁸. A.Y.Yakubovskiyning 1930-yilda chop etgan ilmiy ishlarida Xorazm shaharlari, ularning XIV–XV asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayoti va madaniy holati Ko‘hna Urganch va Mizdahkon misolida yoritiladi ¹⁹.

A.Y.Yakubovskiyning fikrlarini keyingi davrlarda tadqiqotlar olib borgan taniqli arxeologlardan Y.L.Mankovskaya ²⁰, G.A.Pugachenkovalar ²¹ ham o‘z tadqiqotlarida yangidan tasdiqladilar.

Akademik Y.G.G‘ulomov (1908–1976) asarlarida ham Amir Temur va temuriylar davri Orolbo‘yi, vohadagi madaniy jarayonlarga oid fikr-mulohazalar o‘z aksini topgan. Jumladan, olim o‘zining “Xorazmning sug‘orilish tarixi” asarida tadqiqot davriga taalluqli bo‘lgan ba’zi tarixiy voqealarni tahlil qilishga va

¹⁵ Мўминов И.М. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли (ёзма манбалар маълумотлари бўйича). – Тошкент, 1968. – Б. 51.

¹⁶ Аскарлов А.А. Амир Темур и Хорезм // Тезисы международной научной конференции “Амир Темур и его место в мировой истории”. – Ташкент, 1996. – С.38-40; Аскарлов А.А. Амир Темур и его роль в истории // ОНУ. – №7-10. – С.16-25.

¹⁷ Маликов А.М. К вопросу об участии хорезмских мастеров в строительстве архитектурных сооружений Самарканда в эпоху Амира Темура // Тезисы международной научной конференции “Амир Темур и его место в мировой истории”. – Ташкент, 1996. – С.86-87.

¹⁸ Якубовский А.Ю. Государство Тимура. Мавераннахр и Хоросан при Тимуридах (XV в.) // В кн: История Узбекской ССР. Т.1. – Ташкент, 1967. – С.435-508; Правление Тимура (1370-1405) // В кн: История народов Узбекистана. Т.1. – Ташкент, 1992. – С.149-177.

¹⁹ Якубовский А.Ю. Развалины Ургенча // Известия ГАИМК. Т.6, вып.2. – Л., 1930. – С.5-68; Яна қаранг: Городище Миздахкан // Записки Коллегии Востоковедов. Т.V. – Л., 1930. – С. 551-581.

²⁰ Маньковская Л. Архитектурные памятники Кашкадарьинской области. – Ташкент, 1971. – С.55; Пугаченкова Г.А. Зодчество Центральной Азии. XVв. – Ташкент, 1976. – С.11,19,23,25; О‘sha muallif. Темурнинг меъморий мероси. – Тошкент, 1996. – Б. 22,52,72.

²¹ Пугаченкова Г.А. Зодчество Центральной Азии... – С.11,19,23,25; О‘sha muallif. Темурнинг меъморий мероси... – Б. 22,52,72.

manbalarda keltirilgan shahar-qo'rg'onlarning hozirgi qaysi yodgorlikka to'g'ri kelishini aniqlashga harakat qiladi²².

Shu bilan birga, Y.G'.G'ulomov Xorazmning ayrim shaharlari temuriylar davrida ham yashab kelganligi, risoladagiday faoliyat olib borganligini ta'kidlab, bu shaharlar o'sha vaqtda vohaning iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalishini ifodalaganligiga doir asosli xulosaga kelgan.

S.P.Tolstov Qumkent shahrini so'nggi o'rta asrlar yozma manbalaridagi Tirsak bilan qiyoslaydi. S.P.Tolstov o'zining bu fikrini Tirsak shahri XVI–XVII asrlarda ham Vazir bilan birga Xorazmning g'arbidagi mudofaa inshooti vazifasini bajarganligi fakti bilan bog'liq holda isbotlaydi²³.

Xorazmning qadimgi va o'rta asrlardagi sug'orish tarixi bo'yicha tadqiqotchi B.V.Andrianov o'zining "Qadimgi Orolbo'yi sug'orish tizimi" nomli monografiyasida G'arbiy Xorazmning Davdon va Daryoliq bo'ylarida XV–XVI asrga taalluqli sug'orish inshootlari va qishloq makonlari borligini yozadi²⁴. Keyinchalik, B.I.Vaynberg shu atrofni muntazam o'rganish jarayonida Qang'aqir va Tarimqoya, Qo'yqirilgan kabi joylarida XIV–XV asrlarga tegishli qishloq maskanlari mavjudligini ta'kidlaydi²⁵.

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Chig'atoy–Temur mulki shahar madaniyatining biri Xiva XIV–XV asrlarda ham o'ziga xos iqtisodiy, madaniy taraqqiyotni boshidan kechirgan. Bu haqda guvohlik beruvchi ilmiy dalillar talaygina, xususan, taniqli professor M.M.Mambetullayevning Xivada 1984–1990-yillardagi ilmiy tadqiqotlari va ular natijasida aniqlangan ma'lumotlar Amir Temur va temuriylar davrida bu shahar janubiy Xorazmning madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganligini ta'kidlaydi²⁶.

O'rganilayotgan davrda Xorazm vohasida g'arbdan, sharqdan va janubdan kelayotgan savdo karvonlari makon topgan, ular savdo mollarini ayirboshlagan yoki sotishgan. Manbada qayd etilganidek, 1438-yili Volgabo'yi (Oltin O'rda)ga savdo ishi bilan borgan tabrizlik savdogar Xo'ja Shamsuddin Muhammad Urganchda foydali savdo qilib, Saroyga Ustyurt yo'li orqali o'tgan²⁷.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xorazmning Amir Temur va temuriylar davlati tarkibida kechgan tarixi, shu davrga oid iqtisodiy-madaniy hamda siyosiy jarayonlar vatan va xorij tarixshunosligida muayyan darajada o'rganilgan.

Ishning birinchi bobi uchinchi bo'limi "*Amir Temur va temuriylar davri Xorazm madaniyatiga oid arxeologik yodgorliklar*" deb nomlanadi.

²² Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации...– С.312; Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма. –Ташкент, 1959. – С.172.

²³ Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. –М.:Изд-во МГУ,1948. – С.312

²⁴ Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. – М.: Наука, 1965. – С.176-178.

²⁵ Вайнберг Б.И. Новые материалы к истории западных районов Хорезма в XIV-XVI вв. // Этническая история и традиционная культура народов Средней Азии и Казахстана. – Нукус:Каракалпакстан, 1989. – С.131-132.

²⁶ Мамбетуллаев М.М., Ягодин В.Н. К оценке хронологии и исторической динамики культурного слоя древней Хивы // ОНУ.1986. – №8. – С. 43-51; Мамбетуллаев М., Абдиримов Р. Основные этапы развития города Хивы // ОНУ.–1997. – №7-8. – С.3-9.

²⁷ Заходер Б.Н. Ширазский купец в Поволжье в 1438 г. // Каспийский свод сведений о Восточной Европе. Т.2. – М.,1967. – С.166-167.

Xorazm vohasi arxeologik yodgorliklarini ilmiy jihatdan tadqiq etish XX asrning 30–40-yillarida boshlandi. Amir Temur va temuriylar davridagi Xorazm tarixini o'rganishda biz arxeologik va tarixshunoslik mazmunidagi ilmiy adabiyotlarga alohida e'tibor bilan qarashimiz lozim. Biz bu yerda V.V.Bartold, A.Y.Yakubovskiy, S.P.Tolstov, N.N.Vakturskaya, G.A.Pugachenkova, G.A.Fedorov-Davidov, A.A.Asqarov va boshqa bir qator olimlarning XIV–XV asrlarda Xorazmdagi ijtimoiy, siyosiy ahvolni arxeologik, numizmatik tadqiqotlar asosida o'rganishga qaratilgan ilmiy ishlariga quyida qisqacha to'xtalamiz²⁸.

Jumladan, Gurganjning Toshqal'a (Kaan mahallasi) deb nomlangan Amir Temur va temuriylar davridagi shahar markazidagi arxeologik tadqiqotlar jarayonida ko'plab hunarmandchilik va savdo binolari, rastalari ochildi²⁹. Arxeologik tadqiqotlar Amir Temurning 1391-yili Urganchni qayta tiklashga ruxsat bergan "Kaan" mahalla (daha)si Ko'hna Urganchdagi Toshqal'aga mos kelishini ko'rsatadi³⁰.

Devkesgan–Vazirshahri Gurganjning g'arbida 60 km. masofada Ustyurt qiri bo'yida joylashgan. Ustyurt qirining pastida rabot va istirohat bog'i majmuasi mavjud bo'lib, rabot devor bilan o'ralgan.

Mizdahkon(Xo'jayli) yodgorligining Amir Temur va temuriylar davri qatlamlari yaxshi o'rganilmagan hamda Xorazm madaniyati tarixini tadqiq qilishda bu yodgorlik materiallari hisobga olinmagan edi. Yodgorlikning yuqori qatlamlarida ko'pchilik hollarda eski qurilishlardan hosil bo'lgan tepaliklarning ustiga chiqib qolgan temuriylar davri sopol parchalari uchraydi³¹.

Shemaxaqal'a yodgorligini ilk bor tadqiq etgan Xorazm ekspeditsiyasi tashkilotchisi S.P.Tolstov bu yodgorlikni Xorazmning boshqa qadim shaharlari bilan qiyosiy tahlil etib, bu shaharning yozma manbalardagi Tirsak shahriga to'g'ri kelishini ta'kidlaydi³².

Shehrlilik yodgorligi-Ko'hna Urganchdan 90 km. janubiy-g'arbda Dovdon daryo tarmog'ida joylashgan. Bu shahar hududi 1961, 1963, 1965-yillarda N.N.Vakturskaya tomonidan tadqiq qilinib, unga taalluqli ma'lumotlar ilmiy jamoatchilikka havola qilindi³³. Shehrlilik shahri so'nggi davr manbalarida uchraydigan Yangi Shehr urbotoponimi bilan qiyoslanadi va ikkalasi aynanlashtiriladi.

Adoq (Oqqal'a)-Shimoli-g'arbiy Xorazm vohasi temuriylar davri shaharlarining biri Adoq hisoblanadi. Yodgorlik to'g'risida yozma ma'lumotlar kam. Bu borada qisqacha ma'lumot beruvchi kamsonli manbalardan biri Xiva xoni

²⁸ Юсупов Ш., Эшчанова М. Темурийлар даврида Жанубий Хоразм худуди шаҳарлар таснифи // Антик давр цивилизацияси тараққиётида Хоразмнинг ўрни / Республика илмий анжумани материаллари. 2011 йил 20 май. Урганч-Хазорасп-Хива, 2011.

²⁹ Вактурская Н.Н. Хронологическая классификация средневековой керамики Хорезма (IX–XVII вв.) // Труды ХАЭЭ. Т. IV. – М.: Наука, 1959. – Рис. 22, 61: 43, 1–3.

³⁰ Ахмедов Б. Государство кочевых узбеков. – М., 1965. – С. 11–16.

³¹ Кдырниязов М.-Ш. Темуридская керамика Хорезма // Вестник ККО АН Руз. № 1–2. – С. 119–120; Кдырниязов М.-Ш. Миздахкан в эпоху Темуридов // Каракалпакстан тарихының заманагой машкалалары. – Нукус, 2007. – С. 8–10.

³² Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации... – С. 312.

³³ Вактурская Н.Н. О средневековых городах Хорезма // МХЭ. Вып. 7. – М., 1963.

Abulg‘ozi Bahodirxonning mashhur “Shajarayi turk” asari bo‘lib, unda Adoq, Yangi shehr shaharlari nomlari keltirib o‘tilgan. Devorlar va xandaq bilan mudofaa qobiliyatini mustahkamlash Devkesgan – Vazir yodgorligiga ham xosdir³⁴.

Yozma manbalardagi ma’lumotlar bo‘yicha temuriylar davri shaharlarining biri Kat hisoblanadi. Bu shahar Xiva bilan birga Chig‘atoy ulusi tarkibiga kirgan viloyatlar qatorida bo‘lgan³⁵. Ilk bor 1937-yilda A.I.Terenojkin bu yerda ilmiy tekshirishlar olib bordi³⁶. Keyinchalik A.V.Gudkova va Y.P.Manilov 1963-yilda qidiruv ishlarini tashkil qilgan va shaharning IX–XII asr (xorazmshohlar), XIII–XIV asr (Oltin O‘rda) va XV–XVII asrlar (temuriylar)ga tegishli madaniy qatlamlaridan arxeologik topilmalarni aniqlashgan³⁷.

Xonqa nomini akademik Y.G‘.G‘ulomov al Istahriyning (X asr) asarida qayd qilingan Safardaz qishlog‘i bilan taqqoslaydi. Ya’ni Xonqa Xorazmning qadimiy shaharlaridan biri bo‘lib, Xivadan Katga ketgan savdo yo‘lida joylashgan. Xonqa nomi “Xon-aqo” so‘zining transformatsion o‘zgarishidan “Xanqo”, “Xonqa” shakliga aylanganligi haqiqatga yaqin deyish mumkin. Abulg‘ozining “Shajarayi turk” asarida va Xivaning yilnoma tarixiy asarlari mualliflarining ma’lumotlarida Xonqa so‘zi “Honaqoh” transkripsiyasida yozilganini Y.G‘.G‘ulomovham tasdiqlaydi³⁸.

Hazorasp – Xorazmning qadimiy (mil.avv.V–IVasr) shaharlaridan biri. XV asrda vohadagi temuriylarga aloqador siyosiy-harbiy jarayonlarda Hazorasp bir necha marta qayd qilingan. Jumladan, Mirxond (1433–1498) o‘zining “Payg‘ambarlar, podsholar va xalifalarning tarjimai holi haqida jannat bog‘i” asarida temuriy Sulton Husayn Boyqaro 1463-yili Urganch, Xiva, Hazorasp, Tirsak shaharlarini egalladi, deb ma’lumot beradi³⁹.

Yangi davrdagi arxeolog S.R.Baratov rahbarligidagi arxeologik tadqiqotlar ham Hazoraspda Temuriylar davri qurilishtopilmalarining mavjudligini aniqlagan⁴⁰.

Sepoya mavzesi – Xorazmning o‘rta asrlardagi kenti, Kat va Buxoro oralig‘ida Toshqal’a I-II (XII–XIII asr) qo‘rg‘onlari (karvonsaroyi) yonida joylashgan. Akademik Y.G‘.G‘ulomov Sepoya (Uch o‘choq) manzilgohini Toshqal’a va Tuproqqal’a yonida, deb ta’kidlaydi⁴¹.

Sharqshunoslar, akademik V.V.Bartold va N.Ibragimovlar “Sepoya” – “sibay” so‘zi tojikcha bo‘lib, “uch o‘choq” ma’nosida va texnik birlik, bir-biriga bog‘langan yog‘ochlar tizimi, ular, daryo degishidan tuproqni himoya qilishda qo‘llanilgan moslama, degan fikrlarni keltiradilar⁴².

³⁴ Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. –С. 300.

³⁵ МИТТ.Т 1. – С.515.

³⁶ Тереножкин А.И. Археологические разведки в Хорезме // Советская Археология (СА). 1940. Вып. VI. – С.165-216.

³⁷ Маньолов Ю.П. К изучению городище Кят // Вестник ККФАН Узбекской ССР.1966.–№2. – С.52-56.

³⁸ Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. –Ташкент, 1957. – С.144.

³⁹ Материалы по истории туркмен и Туркмении. Том 1. –М.–Л.,1939. – С.540.

⁴⁰ Баратов С.Р. Археологические исследования на юге Хорезма в 2004-2005 // АИУ-2004-2005 гг. – Ташкент, 2006. –С.50.

⁴¹ Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма... –С.168.

⁴² Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. Том 1. – М.,1963. –С.59; Иброхимов Н. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати. – Тошкент: Шарқ баёзи, 1993. – Б.91.

“Eski O‘kuz”, “Asaf O‘kuz” – gidrotoponimlari ham temuriylar davri manbalaridan ma‘lum. Nizomiddin Shomiy va Ali Yazdiy “Zafarnoma”sida 1379-yili Amir Temur askarlari Gurganjga yurish paytida “Ular eski daryo, turklar “Eski O‘kuz” deb nomlagan daryo (Amudaryo)dan o‘tdi (kechuv) va shahar (Gurganj)ni o‘rab oldi”, deb ma‘lumot beradi⁴³.

Dissertatsiyaning ikkinchi **“XIV–XV asrlardagi Xorazm madaniyati tarixiga yangicha qarashlar va yondashuvlar”** deb nomlangan bobning XIV–XV asrlar Xorazm madaniyatining asosiy bosqichlari bo‘limida quyidagicha masalalar ochib berildi.

XIV asrning 60-yillarida hanuz chig‘atoylar boshqarayotgan Movarounnahrda ham siyosiy kuchlar o‘rtasidagi kurashlar avj oldi. O‘zaro nizolardan so‘ng Amir Temur 1370-yilda hokimiyatni to‘liq egalladi. Bulardan tashqari, shu asrning 80-yillarida Oltin O‘rdaga chegaradosh davlatlar siyosiy hayotida ham katta o‘zgarishlar bo‘layotgan edi.

Tarixiy adabiyotlarda qayd qilinganidek, Sohibqiron 1372–1388-yillar oralig‘ida Xorazmga besh marta yurish qildi, Gurganjni bosib oldi va so‘filar sulolasi bu yerda tugatildi. Poytaxt shahar vayron qilindi, ko‘plab olimlar, hunarmandlar Movarounnahrda ko‘chirildi⁴⁴. Bu o‘rindaham Husayn So‘fining xatosi, elchiga nisbatan shafqatsiz munosabati oxir-oqibat butun bir sulolaning faoliyatiga xotima yasab, hokimiyat uzangisining boy berilishiga olib keldi.

Jumladan, bu davr bo‘yicha rimliklar Plano Karpini, aka-uka Pololar XIII asrning 40–60-yillarida Oltin O‘rdada, O‘rta Osiyo hududida bo‘lganida Organso nomi bilan Urganchni eslab o‘tadilar⁴⁵. Ularning ma‘lumotini fransuz qiroli Lyudovik IX elchisi Andre Londjumo, italiyalik Djovanni Marinololar Orolbo‘yi shaharlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlari bilan to‘ldiradi. Shunday bo‘lsa-da, mavzu doirasida o‘rganilayotgan hududga doir yevropaliklarning ma‘lumotlarini arab-fors tillarida yozgan Ibn Battuta, Shihobiddin Fazlulloh al Umariy, Ibn Arabshoh o‘z axborotlari bilan to‘ldiradi⁴⁶.

Arxeologik va manbashunoslik yo‘nalishidagi tadqiqotlar Ustyurt tekisligida joylashgan o‘rta asr shaharlari Shemaxaqal’a (Qumkent), Adoq (Oqqal’a), Vazirdan tortib, temuriylar davridagi sug‘orish inshootlari Gurlan kanali (Bag‘dod, Bag‘dodik), Eski O‘kuz (Amudaryo), Asaf O‘kuz kabi daryo tarmoqlari viloyatning shimoli-g‘arbiy elatlar (Xuroson) bilan aloqalarda muhim ahamiyatga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Bularning barchasi Xorazmning temuriylar davri madaniyatiga taalluqli bo‘lib, voha aholisining markaziy hududlar bilan yaqin aloqada bo‘lganini ko‘rsatadi. Shubhasiz, Sariqamishning moddiy madaniyati, xo‘jalik hayoti Xorazmning XV–XVI asrlar shahar madaniyati rivojlangan hududlari bilan o‘zaro aloqada bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Xorazm hududlarining 1388-yili Amir Temur tomonidan Movarounnahrda

⁴³Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома.–Б. 73, 79; Низомиддин Шомий. Зафарнома. Парчалар таржимаси. МИТТ. Т. 1. – М., 1939. – С.518.

⁴⁴ МИТТ. Том1. – С.524; Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома... – Б.119.

⁴⁵ Плано Карпини Дж. История монголов. – М., 1957. – С. 46, 209; Книга Марко Поло. – М., 1955. –С.20.

⁴⁶ Становление и расцвет Золотой Орды. –Казань, 2011. –С.129, 174.

qo‘shib olinishi jarayonlari, markazlashgan saltanat tarkibiga uyg‘unlashuv vohadagi shahar madaniyatining rivojlanishini to‘xtatmadi. Tarixiy manbalar ma‘lumotlari bilan birga, arxeologik tadqiqotlar natijalari ham Amir Temur va temuriylar davrida Hazorasp, Xiva, Kat, Gurganj (Toshqal’a), Vazir (Devkesgan) kabi shaharlarning mudofaa devorlari, aholi turarjoylari va boshqa inshootlar qayta qurilganini tasdiqlaydi. Shemaxaqal’a, Adoq, Mizdahkon, Toshqal’a, Oqqal’a, Puljoydagi Amir Temur va temuriylar davriga oid arxeologik topilmalar bu davrda madaniy yuksalish yuz berganligini ko‘rsatadi.

Ikkinchi bobning *“Mustaqillik davrida mavzuga oid yangicha qarashlar va ularning tarixiy tadqiqotlarda aks etishi”* deb nomlangan bo‘limida Amir Temur va temuriylar davri tarixiga xolisona baho berish masalasi ko‘rib chiqildi. Shuni aytish lozimki, Amir Temur shaxsiga va faoliyatiga xolisona munosabat mustaqillik yillaridagina yangi bosqichga ko‘tarildi. Dunyo miqyosida Amir Temur davridagi tarixiy jarayonlar, uning hayoti va faoliyati tarixiga bag‘ishlangan ko‘plab xalqaro ilmiy anjumanlar o‘tkazildi va ularda dunyo olimlari tomonidan bildirilgan ijobiy fikrlarda uning shaxsi va bunyodkorlik ishlari yuqori baholandi⁴⁷.

Mustaqillikdan keyin temuriylar va Xorazm vohasi aloqalari tarixiga oid yangi fikrlar akademik A.A.Asqarov⁴⁸ va yana boshqa olimlarning ma‘ruza, ilmiy maqolalarida chop etildi⁴⁹. XX asr 90-yillaridan Amir Temur va temuriylar tarixiga qiziqish yangidan avj oldi. Voqealar jarayoni va manbalar adolat yuzasidan qayta o‘rganilgan asarlar chop etildi. O‘rganilayotgan mavzuga xos ma‘lumotlarni B.A.Ahmedovning *“Xorazmning XV asrdagi siyosiy tarixidan”*, *“Xiva tarixiga oid yangi ma‘lumotlar”*, *“Ulug‘bek va uning ”Tarixi arba ulus”*, *“O‘zbek ulusi”* va boshqa asarlaridan olishimiz mumkin⁵⁰.

Xorazmning Amir Temur va temuriylar davriga oid me‘morchilik san‘atiga tegishli ma‘lumotlarini biz G.A.Pugachenkova (1915–2007) asarlaridan olamiz⁵¹.

Amir Temur va temuriylar davridagi Movarounnahr, Xorazm koshinkorlik sohasidagi bezaklar va ularning o‘zaro aloqalari taniqli qadimshunos A.A.Abdurazzoqov tadqiqotlarida o‘z aksini topgan⁵².

Mustaqillik davrida mavzuga doir chop etilgan kitob va maqolalar salmoqli bo‘lib, shular qatorida B.A.Ahmedovning *“Amir Temur”*, A.Asqarov, B.Ahmedov, R.Muqminovalarning *“Temur va Ulug‘bek davri tarixi”*, G.A.Pugachenkovaning

⁴⁷ Тезисы Международной научной конференции “Амир Темур и его место в мировой истории”. 23-26 октября 1996 г. –Ташкент: Узбекистан, 1996. – С.124.

⁴⁸ Аскарлов А.А. Амир Темур и Хорезм... – С. 38-40; O‘shamuallif. Амир Темур и его роль в истории... – С.16-25.

⁴⁹ Маликов А.М. К вопросу об участии хорезмских мастеров в строительстве архитектурных сооружений Самарканда в эпоху Амира Темура//Тезисы международной научной конференции “Амир Темур и его место в мировой истории”. – С.86-87.

⁵⁰ Ахмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент,1994.– Б. 162-170, 311-316, 329-337; O‘sha muallif. Ўзбек улуси. – Тошкент,1992. – Б. 80-120.

⁵¹ Пугаченкова Г.А. Зодчество Центральной Азии XVв. –Ташкент,1976. – С.35; O‘sha muallif. Темурнинг меъморий мероси. –Тошкент,1996. – Б. 54.67.

⁵² Абдураззоков А.А. Амир Темур даврида шишасозлик ва кошинкорлик соҳасидаги янгиликлар // Общественные науки в Узбекистане, 1996. –№4-5. – Б. 59-62.

“Temurning me’moriy merosi” va yana boshqa qator tadqiqotlar natijalarini qayd etish mumkin⁵³.

Ushbu tadqiqotlar asosida mahalliy tarixchilar tomonidan ilmiy anjumanlar tashkil qilindi. Jumladan, yuqorida keltirilgan tadqiqotlardan tashqari keyingi davrlarda, ya’ni XXI asrning birinchi o’n yilliklarida M.M.Mambetullayev va M.-Sh.Qdirniyazovlar tomonidan Amir Temur va temuriylar davriga bag’ishlangan ilmiy-ommabop risolalar chop etilgan⁵⁴. Bu tadqiqotlardatemuriylar va Xorazm davlati o’rtasidagi o’zaro siyosiy va iqtisodiy munosabatlarni baholashda ilk bor eng so’nggi arxeologik tadqiqotlar materiallari ilmiy muomalaga jalb qilingan.

Shuni ta’kidlash kerakki, Markaziy Ustyurt karvon yo’lidan XIV–XVI asrlarda ham keng foydalanilgan. Bu savdo yo’li to’g’risida Ibn Arabshoh (1436–1437) va Antonio Jenkinson (1558–1559) ham eslatib o’tadi⁵⁵. Bu mualliflar ma’lumotlarini arxeologik tadqiqotlar natijalari tasdiqlaydi. Zero, Belovli karvonsaroyi va Puljoy yodgorligida “temuriylar kulolchiligi” namunasidagi sopol buyumlar ko’plab uchraydi⁵⁶.

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki, Xiva XIII–XV asrlar davomida avval Chig’atoy ulusining, so’ng Amir Temur va temuriylarning Janubiy Xorazmdagi yirik shaharlaridan biri bo’lgan. Bundan kelib chiqadiki, Amir Temur, asosan, Urganchni vayron qilgani bilan Xorazmning boshqa shaharlari va hududlari taraqqiy qilishda davom etgan. Bu holat esa ilgari ta’kidlab kelingan Xorazm Amir Temur yurishlaridan keyin iqtisodiy va madaniy inqirozlar doirasiga tushib qoldi, degan qarashlarni rad qiladi⁵⁷.

Uchinchi bob **Amir Temur va temuriylar davrida Xorazmda siyosiy-iqtisodiy, madaniy munosabatlariga bag’ishlangan bo’lib, uning dastlabki paragrafi***Rivojlangan o’rta asrlarda Xorazmda siyosiy-iqtisodiy hayot hamda madaniy munosabatlar tahliliga bag’ishlanadi.*

Sohibqironning Xorazmga birinchi yurishi 1372-yilning iyulida uyushtirildi. Kot egallanib, so’ngra Gurganj qamalga olindi. Dastlabki jangda mag’lub bo’lgan, kibri sindirilib, qamalda qolgan, oriyati, g’ururi sindirilgan Husayn So’fi qamal vaqtida bu sharmandalikni ko’tarolmasdan vafot etdi. Uning ukasi, taxt vorisi Yusuf So’fi Amir Temurdan sulh so’radi “va aroda kishi solib yarash so’zini ayturdi” va Sohobqiron nazariga tushgan Yusufning ukasi Oq So’fi qizi

⁵³ Пугаченкова Г.А. Темурийлар даври меъморий мероси. – Тошкент: Комус, 1996.

⁵⁴ Amir Temur–simvol mogushstva naroda // Materialy respublikanskoy nauchno-teoreticheskoy konferentsii posvyashchennoy 673 godovshinu Amira Temura (7-8 aprilya 2009 g.). – Nukus, 2009. – 152 s.; Mambetullaev M.M. Polkovodec, on zhe diplomat // Vesti Karakalpakstana. 1995. 13 maya; Mambetullaev M.M. Vzaимоотношения Amir Temura s Kungradskimi Suфи // Хорезм Маъмун академиясының 1000 жыллығына арналған Республикалық илимий анжуман материаллары. – Нокис, 2006. – Б. 16-18; Кдырнийазов М.-Ш. Темур хэм Темурийлер дэуириндеги Арал бойы жерлери // Еркин Каракалпакстан. 1996, 23-апрель саны; О’sha muallif. Темурийлар давридаги Хоразм шаҳарлари // Хорезм Маъмун Академиясының 1000 жыллығына... – Б. 12-14; О’sha muallif. Темуридская керамика Хорезма // Вестник ККО АН РУз. 2005. – №1. – С.119.

⁵⁵ Английские путешественники в Московском государстве в XVI веке.–М.,1937. – С. 179.

⁵⁶ Кдырнийазов М.-Ш. Темуридская керамика Хорезма // Вестник ККО АН РУз. 2005. – №1. –С. 119.

⁵⁷ Юсупов Ш. Amir Temur va Temuрийлар даври Хоразм тарихи хориж ва совет тарихшунослигида // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда тўплами. – Т.: Navro’z, 2019. – Б. 318-321.

Sevinchbeka (Xonzoda)ni amir o'g'li shahzoda Jahongirga berishga rozi bo'ldi. Temur sulh tuzib, Samarqandga qaytdi⁵⁸.

